

Saytimiz: [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz)

Telegramdagi kanalimiz: [@baxtiyoruz](https://t.me/baxtiyoruz)

## SAYTIMIZ VA KANALIMIZ MEHMONI BO'LIB O'ZINGIZ IZLAGAN NARSANI TOPISHINGIZGA ISHONAMIZ.

Sahna bayramona bezatilgan. Musiqa sadolari ostida o'quvchilar sahnaga kirib keladilar.

Boshlovchi: Xush kelibsiz, ey aziz

O'qituvchi, mehmonlar.

Onajon, otaxonlar.

Avvalo hammangizga,

Assalomu alaykum.

Bugun bizning maktabda,

Juda katta tantana.

Bilimini namoyon qiladi

Har bir bola.

Ustozlar o'gitini,

Dilimizga joyladik

Dilda hayajon bilan

Bayramimiz boshladik.

Mustaqil yurt o'g'il-qizlari,

Yuzi qirmiz, shirin so'zlari.

Aqli raso bilimga tashna,

Kulib turar nurli ko'zlari.

Davramizning guli o'zingiz,

Charaqlagan oysiz ham quyosh.

Olqishlar sizni keksa-yosh.



Oysanam: Quyoshdek shu'la sochgan,  
Bilimga keng yo'l ochgan.  
Bizni erkalab quchgan,  
Sizgadir ushbu kalom  
Muallimlar assalom!

Zebo: Uzun tunlar allalab,  
Oq yuvib,oq tarab .  
O'stiringiz erkalab,  
Sizgadir ushbu kalom,  
Onajonlar assalom.

Shodiya: Kunday yorug' darsxona,  
Biz farzandmiz,siz ona.  
Bo'lib bizga parvona,  
Dilda ardoqli kalom,  
Ona maktab assalom!

Farruh: Tanitib yurt-jahonga,  
Erk bergan har insonga,  
Dilda ardoqli kalom,  
Mustaqil yurt assalom!

Shu mahal zalga Yovuz kampir Qimmatoy bilan kirib keladi.

Yovuz kampir:-Qimmatoy! Ana, sen yo'qotib qo'ygan shumtakalar! Ushla ularni!

Boshlovchi: To'xtang, buvijon! Axir bugun ularning bayrami-ku!

Yovuz kampir: Hech qanday bayram bo'lmaydi.

Boshlovchi: Nega, buvijon?

Qimmatoy: Chunki buvijonim va meni shumtakalar bayramga taklif etishmadi. Shuning uchun ularni buvim sehrlab qo'ydilar. Bayram yo'q, yo'q, yo'q.....(kulib o'yinga tushadi).



Shu payt musiqa sadolari ostida Yaxshilik saltanati malikasi o'z yordamchilari bilan kirib keladi.

Boshlovchi: Salom, Yaxshilik saltanati malikasi! Xushkelibsiz!

Yaxshilik saltanati malikasi: Shu yerda bayram bo'lyaptimi? Bolalar meni taklif etishgan edi. Qani meni asal bolajonlarim?

Boshlovchi: Malikam! Ana u kampir o'rtoqlarimni sehrlab qo'yibdi. Endi bayram bo'lmas ekan!

Yaxshilik saltanati malikasi:

Bu ishing yaxshi emas! Qani, tezda bu ishingni bas qil!

Yovuz kampir: Hech qachon! Chunki meni bu bayramga taklif etushmagan. Men ulardan juda xafa bo'ldim.

Yaxshilik saltanati malikasi: Agar sehrdan ozod etmasang, seni bir umr shirinliklardan mahrum etaman.

Yovuz kampir: Yo'q, yo'q xohlamayman. Shirinliklar meni jon-u dilim!

Bolalar: Mana bu vijonim! Endi o'rtoqlarimni ozod eting! Iltimos! (bolalar shirinliklar berib, yalinadilar).

Yovuz kampir: Juda yaxshi bolalar ekanmi, Qimmatoy! Kel, ularni do'stlarini sehrdan ozod qilamiz!,-dedi.

Qimmatoy: Buvijon, ularga shart qo'ying.

Yovuz kampir: Unday bo'lsa, bu bolalar bizga chiroyli raqslar, she'rlar aytib bersinlar-chi. Biz ham birga o'ynaymiz.

Yaxshilik saltanati malikasi: Qani, bolalar o'z san'atingizni namoiy etinglar.

Boshlovchi: Istiqlol quyoshi nur sochgan zamonda bolalik gashtini surayotgan biz baxtiyor avlodmiz. Shu o'tgan davr mobaynida turli bilimlarni o'rganish bilan bir qatorda Vatan so'zining ma'nosini angladik. Bayrog'imiz, gerbimizni ta'riflashni o'rgandik. Madhiyamizni yod olib, kuylab yuradigan bo'ldik.



Karimjon: Vatan bizning uyimiz,  
Vatan bizning ko'chamiz.  
Soylardagi suvimiz,  
Maza qilib ichamiz.

Ozoda : Oltin to'la konimiz,  
Tandir to'la nonimiz.  
Vatan, maktab, onamiz,  
O'qishni o'rganamiz.

Marhabat: 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Har yili 1-sentabrni Mustaqillik bayrami sifatida nishonlaymiz.

Sanjar: Hali bitilmagan dostonlarim bor,  
Bulbullar sayragan bo'stonlarim bor.  
Dovrug'I dostonim, hur O'zbekiston,  
Ulug'lar kuylagan yurt O'zbekiston.

Shodiya: 1991-yil 18-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i tasdiqlandi.

Oysanam: Xalqim orzu niyati,  
Dilga quvonch soladi.  
Bayrog'imiz dunyo uzra,  
Yurtga dovrug' soladi.

Husnida: 1992-yil 2-iyulda Davlatimiz tamg'asi tasdiqlangan.

Zebo: Tamg'amizga bir qarang,  
Tovlanadi rang-barang.  
Unga beradi chiroy ,  
Tepasida hilol oy.  
Bir tomoni paxtazor,





Quyosh nurin sochadi.  
Amudaryo,Sirdaryo,  
Chanqog'ingni bosadi.  
O'rtasida humo qushi,  
Bizga omad tilaydi.  
O'zbekiston nomini,  
Jahon uzra taraydi.

Umidjon: 1992-yil 10-dekabr kuni Vatanimiz madhiyasi tasdiqlangan.

Mirzo: Madhiyani tinglasam har on,  
Vujudimni bosar hayajon.  
Omon bo'lgin turguncha jahon,  
Mustaqil yurt O'zbekiston!

Ahmadali: Gerbimiz,bayrog'imiz,  
Madhiyamiz bor endi.  
Huquq himoyachisi,  
Qomusimiz bor endi.

Boshlovchi: Qo'shiqlarda Vatan ma'nosi,  
Qo'shiqlarda xalqim sadosi.  
Vatan o'yin yangratsa dillar,  
Yayrar yurtning yer-u samosi.

Navbatni Xorazmcha raqsga beriladi.

Boshlovchi: Bugun bayram sabablari,  
Bilimlar poydevori.  
Ma'noli,shirin so'zli,  
Qani,Alifbe o'zi?

Bolalar: Alifbejon,kel,tezroq,  
Do'stlaring senga mushtoq!

Davruga Alifbe kitobi kirib keladi.



Alifbe: Salom,aziz bolalar,  
Chiroyli gul-lolalar.  
Xo'sh,bolalar ayting-chi chindan,  
Nimalarni bildingiz mendan?

Marhabat: O'qishni va yozishni,  
Maqollarni o'qishni.  
Topishmoqlar topishni,  
Tez aytishlar aytishni

Hamma: Rahmat senga Alifbe,  
Rahmat senga Alifbe!

Boshlovchi:Ey aziz bolalar,siz tovushlar ne deyishini Alifbega aytinglar.  
O'quvchilar harflar tilidan she'r aytdilar.

Qo'shiq "Alifbe" haqida.

Boshlovchi: Shuning bilan harflar kalomi bitdi,  
Sizga aytar dilkash salomi bitdi.  
Ular bilan do'st bo'lsangiz albatta,  
Qoldirmaydi harflar sizni g'aflatda.

Alifbe: Bolajonlar,siz mendan,  
Ko'p narsalar bilibsiz,  
Bilim to'la konimdan,  
Dur-u gavhar teribsiz.  
Fursat yetdi siz bilan,  
Xayrlashib ketaaman.  
Do'stim o'qish kitobini,  
Endi taklif etaman.



Bolalar; Xayr, Alifbejonim,  
Rahmat yo'llab qolamiz.  
Omon bo'lgin biz senga  
Oq yo'l tilab qolamiz.

O'qish kitobi: Salom aziz bolalar,  
Chiroyli gul-lolalar.  
Men-chi, "O'qish" kitobman,  
Nur sochgan oy-oftobman.  
Yoningizga keldim men,  
Kerakligim bildim men

Bolalar: Kitobim xush kelding sen,  
Dilni xushnud etding sen,

O'qish kitobi: Bolajonlar yuzimni,  
Iflos qilib qo'ymangiz,  
Yirtib zar varag'imni,  
Ko'p uyatga qolmangiz.

Bolalar: Kitobim bo'l xotirjam,  
Ozor bermaymiz hech ham.

O'qish kitobi: Men bir chuqur quduqman,  
Limmo-limdir suvlarim.  
Qonib-qonib ichsangiz,  
Bahongiz besh do'stlarim.

Boshlovchi: Aziz o'quvchilar! Mana o'qish kitobingiz bilan ham  
tanishib, do'stlashib oldingiz. Endi mehmonlarga o'z san'atingizni  
namoyish etib berasizlarmi?

Hamma: Albatta.

O'quvchilar ijrosida "Jo'ja" raqsi ijro etiladi.



Boshlovchi: Qarang, bolalar davramizga “Matematika” kitobi ham kirib kelyapti.

Matematika kitobi: Mendan o’rganib hisob,  
Fanlarning podshosiman.  
Sirlarim ko’p behisob,  
Donolar oshnasiman.

Assalomu-alaykum aziz o’quvchilar! Sizlarni bugungi “Savodxonlik bayrami” bilan tabriklayman. Qani, o’quvchilar raqamlar haqida ham she’r bilasizmi?

O’quvchilar raqamlar haqidagi she’rlarni aytadilar.

Matematika kitobi: Zukko, dono do’stlarim,  
Aqlingizni charxlayman.  
Misollarni tez yeching,  
Topqirlikka corlayman.  
Zehningiz ham oshadi,  
Sanashda hech shoshmangiz,  
Hisob kitob ishida,  
Hech qachoh adashmaysiz.

Raqs “Popuri”



Sahnadan Yovuz kampir, Qimmatoy, Malika chiqib ketadilar.  
Raqs “Qizlarjon”



Navbat qiziqarli o'yinga beriladi.  
"Jo'jalar juda qiziq" raqsi ijro etiladi.

Polka raqsiga navbat beriladi.



Olma raqsi ijro etiladi.



